



TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI: SHAKLLANISHI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING STRATEGIK ROLI

Do'stmurodov Ismat Abdumurodovich

Xalqaro Nordik universiteti Jurnalistika yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya (O'zbek tilida): *Mazkur maqolada O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida Turkiy davlatlar tashkiloti faoliyatining yoritilish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — milliy OAVda tashkilotga oid axborotlarning mazmuni, yo'nalishlari va berilish uslublarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida kontent tahlil, komparativ va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, OAVda materiallar asosan siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlik kontekstida, ijobiy va rasmiy ruhda yoritiladi. Shuningdek, yangilik janri ustunligi va analitik materiallar ulushining nisbatan kamligi aniqlandi. Maqolada ushbu yo'nalishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *Turkiy davlatlar tashkiloti, OAV, media, xalqaro hamkorlik, axborot siyosati, kontent tahlil.*

Аннотация (Rus tilida): *В данной статье анализируются особенности освещения деятельности Туркий davlatlar tashkiloti в средствах массовой информации Узбекистана. Цель исследования заключается в выявлении содержания, направлений и форм подачи информации о деятельности организации в национальных СМИ. В работе использованы методы контент-анализа, сравнительного и системного подхода. Результаты показали, что материалы в СМИ преимущественно освещаются в контексте политического, экономического и культурно-гуманитарного сотрудничества и носят в основном официальный и позитивный характер. Также выявлено преобладание новостного жанра и недостаток аналитических материалов. В статье предложены рекомендации по совершенствованию данного направления.*

Ключевые слова: *Организация тюркских государств, СМИ, медиа, международное сотрудничество, информационная политика, контент-анализ.*

Abstract (English): *This article analyzes the features of media coverage of the activities of the Turkiy davlatlar tashkiloti in the mass media of Uzbekistan. The aim of the study is to identify the content, directions, and presentation formats of information about the organization in national media. The research employs content analysis, comparative, and systematic methods. The findings indicate that media materials mainly focus on political, economic, and cultural-humanitarian cooperation and are presented in a predominantly positive and official tone. It was also revealed that news genres prevail, while analytical materials remain limited. The article provides recommendations for improving media coverage in this field.*

Keywords: *Organization of Turkic States, mass media, media coverage, international cooperation, information policy, content analysis.*



INTRODUCTION (KIRISH)

XXI asrda dunyo miqyosida mintaqaviy integratsiya jarayonlari jadal rivojlanib borayotgan bir paytda turkiy tilli davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida o'ziga xos o'rin egallagan mintaqaviy tuzilma hisoblanadi.

Mazkur tashkilotning shakllanishi tarixan umumiy til, madaniyat va qadriyatlarga asoslangan. Uning institutsional rivoji mustaqil davlatlarning siyosiy irodasi natijasida yuzaga kelgan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasida integratsiya jarayonlarining jadallashuvi TDT faoliyatining dolzarb ahamiyatga ega ekanligini yanada oshiradi.

Alohida qayd etish joizki, 2024 – 2025-yillarda o'tkazilgan sammitlarda qabul qilingan qarorlar TDTning yangi strategik yo'nalishlarini belgilab berdi.

Ushbu maqolaning maqsadi — TDTning shakllanish jarayoni, asosiy rivojlanish bosqichlari, zamonaviy holati hamda O'zbekistonning tashkilot doirasidagi strategik rolini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Methods (Metodologiya)

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

— Tarixiy-tahliliy metod — tashkilotning shakllanish bosqichlarini o'rganishda qo'llanildi. Bu metod orqali 1992-yildan boshlab TDTning institutsionallashuv jarayoni bosqichma-bosqich tahlil qilindi.

— Komparativ metod — turli davrlardagi rivojlanish xususiyatlarini solishtirish, shuningdek, TDTni boshqa mintaqaviy tashkilotlar (Yevropa Ittifoqi, ASEAN, SHHT) bilan qiyoslashda foydalanildi.

— Case-study metodi — O'zbekistonning TDT doirasidagi faoliyatini alohida case sifatida chuqur o'rganishda qo'llanildi.

Tadqiqot manbalari sifatida rasmiy sammit qarorlari, deklaratsiyalar, TDT Bosh kotibliги rasmiy bayonotlari, ilmiy maqolalar va ekspert tahlillaridan foydalanildi.

Results (Natijalar)

Davr	Bosqich nomi	Asosiy xususiyatlar
1992–2009	Dastlabki integratsiya	<ul style="list-style-type: none">• 1992: Ankarada 1-sammit• Madaniy va siyosiy aloqalar• Institutsional tuzilma shakllanmagan
2009–2021	Institutsionallashuv	<ul style="list-style-type: none">• 2009: Naxichevan kelishuvi• Turkiy kengash tashkil etildi• 2019: O'zbekiston a'zo bo'ldi
2021–hozir	Transformatsiya	<ul style="list-style-type: none">• 2021: TDT deb nomlandi• "Turkiy olam — 2040" qabul qilindi• 2025: OTS+ formati joriy etildi

TDT shakllanishi va rivojlanish bosqichlari



Tadqiqot natijalariga ko'ra, Turkiy davlatlar tashkilotining shakllanishi va rivojlanishi quyidagi asosiy bosqichlarga bo'linadi:

1-bosqich: Dastlabki integratsiya davri (1992–2009)

1991-yilda beshta mustaqil turkiy davlat — O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon va Turkmaniston — dunyo xaritasidan joy egallashi bilan turkiy davlatlar o'rtasida intensiv diplomatik aloqalar boshlandi. 1992-yilda Anqarada turkiy davlatlar rahbarlarining birinchi sammiti o'tkazildi. Ushbu sammitda Turkiya respublikasi prezidenti Turg'ut O'zel "Bizning hamkorligimiz hech kimga zarar keltirmaydi va kelajakda ham keltirmaydi" degan tarixiy bayonot berdi.

1994 – 2000-yillar davomida beshta sammit o'tkazildi. Biroq, bu davrdagi hamkorlik qamrovi asosan madaniy va siyosiy aloqalar bilan cheklangan, institutsional tuzilma hali shakllanmagan edi.

2-bosqich: Institutsionallashuv davri (2009–2021)

2009-yilning 3-oktabrida Ozarbayjonning Naxichevan shahrida tarixiy sammit bo'lib o'tdi. Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston va Qirg'iziston tomonidan imzolangan Naxichevan kelishuvi asosida "Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi" (Turkiy kengash) tashkil etildi.

Bu davrda tashkilotning boshqaruv tuzilmasi shakllandi. Davlat rahbarlari kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Oqsoqollar kengashi va Bosh kotiblik (Istanbul) faoliyati yo'lga qo'yildi.

2019-yilda Bokuda o'tkazilgan 7-sammitda O'zbekistonning to'laqonli a'zo sifatida tashkilotga qo'shilganligi muhim tarixiy voqelik bo'ldi.

3-bosqich: Transformatsiya va kengayish davri (2021–hozirgacha)

2021-yilning 12-noyabrida Istanbulda o'tkazilgan 8-sammitda tashkilot rasman "Turkiy davlatlar tashkiloti" deb nomlandi. Strategik ahamiyatga ega "Turkiy olam — 2040" hujjati qabul qilindi. 2024-yilning sentabr oyida Turkiy olam umumiy alifbosi komissiyasi lotin yozuviga asoslangan 34 ta harfdan iborat umumiy alifbo haqida kelishuvga erishdi.

2024 – 2025-yillardagi muhim qarorlar

2024-yilning 6-noyabrida Bishkekda o'tkazilgan 11-sammit "Turkiy olamni kuchaytirish: iqtisodiy integratsiya, barqaror rivojlanish, raqamli kelajak va barchaning xavfsizligi" mavzusiga bag'ishlandi. Ushbu sammitda Bishkek 2025-yil uchun Turkiy olamning raqamli poytaxti deb e'lon qilindi. "Turkiy yashil tashabbus: barqaror kelajak uchun birlik" ekologik hamkorlik strategiyasi, Turkiy olam Nizomi qabul qilindi. TDT bayrog'i rasman tasdiqlandi. Sun'iy intellekt bo'yicha Bishkek deklaratsiyasi imzolandi.

12-sammit Ozarbayjonning Gabala shahrida "Mintaqaviy tinchlik va xavfsizlik" mavzusida o'tkazildi. Ushbu sammitda a'zo bo'lmagan davlatlar bilan hamkorlikni institutsional bosqichga olib chiquvchi asosiy qaror — "OTS+" formati joriy etildi. 2026-yilda birinchi qo'shma harbiy mashqlarni o'tkazish bo'yicha kelishuvga erishildi.



"Turkiy davlatlarning strategik sheriklik, abadiy do'stlik va birodarlik shartnomasi"ni imzolash maqsadi e'lon qilindi.

A'zolik tarixi va siyosiy iroda

O'zbekiston 2019-yilda Bokuda o'tkazilgan 7-sammitda TDTga to'laqonli a'zo sifatida qo'shildi. Bu, Prezident Shavkat Mirziyoyev ilgari surayotgan ko'p vektorli tashqi siyosatning muhim qismi bo'ldi. 2022-yilda o'tkazilgan Samarqand sammitda O'zbekiston tashkilot raisi lavozimini egalladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev barcha asosiy sammitlarda faol ishtirok etmoqda. Jumladan, O'zbekiston rahbari Bishkek (2024), Budapesht (2025) va Gabalada (2025) o'tkazilgan sammitlardagi o'z nutqlarida xalqaro huquq va BMT Nizomiga asoslangan yondashuv, a'zo davlatlar o'rtasida umumiy pozitsiya va muvofiqlashtirilgan yondashuvlarni ta'kidlab kelmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston TDT doirasida bir qator strategik ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiy tashabbuslarni ham ilgari surmoqda. TDT doirasida savdo operatsiyalarini soddalashtirish va tezlashtirish masalalariga yechim bo'lishi kutilayotgan "TURK-TRADE" onlayn platformasini joriy etish bo'yicha bildirilgan taklif shular jumlasidandir.

TDT doirasida qabul qilinayotgan qarorlar a'zo mamlakatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarning yanada rivojlanishiga asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, 2024-yil oxiriga kelib O'zbekistonning Qozog'iston bilan savdo aylanmasi 4.28 milliard, Turkiya bilan esa 2.9 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan. Oxirgi yillarda TDT sammitlarida Trans-Kaspiy xalqaro transport yo'lagi ("O'rta yo'lak") — Osiyo va Yevropani Markaziy Osiyo, Kavkaz va Turkiya orqali bog'laydigan muhim transport loyihasi amalga oshirilishi ilgari surilayotganligi ayni shu kabi ko'rsatkichlarning sifat jihatdan yuksalishiga dastak bo'lishi tayin.

O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev Gabala sammitida (2025) TDT integratsiyalashuvida yangi bosqich hisoblangan ilm-fan va ta'lim hamkorligiga asoslangan muhim tashabbus — "Jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyilini ilgari surdi. Buning natijasida O'zbekiston 2025 - 2026- yillarda 100 dan ortiq oliy ta'lim muassasalarini birlashtiruvchi Turkiy universitetlar ittifoqiga raislik qiladi.

O'zbekistonda turkiy davlatlarning xalqaro universiteti tashkil etilmoqda. Ushbu universitet negizida qo'shma tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqish taklif qilindi.

Discussion (Muhokama)

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Turkiy davlatlar tashkiloti rivoji bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirilmoqda. Dastlab madaniy yaqinlik asosida boshlangan hamkorlik aloqalari keyinchalik siyosiy, iqtisodiy va nihoyat xavfsizlik integratsiyasi masalalarini ham qamrab olmoqda.

TDTning institutsionallashuvi bir necha muhim omillar bilan izohlanmoqda. Turkiyaning siyosiy-strategik iroda ko'rsatish yo'lidagi tashabbuslari, Ozarbayjonning



Qorabog' masalasi a'zo davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanganligi, eng ko'p aholiga ega turkiy davlat hisoblanuvchi O'zbekistonning tashkilotga yana qo'shilishi (2019) bilan TDT salohiyati sezilarli oshganligi va turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy birlikni rasman mustahkamlaydigan umumiy alifbo loyihasini joriy etish tashabbusi ilgari surilayotganligi shular jumlasidandir.

Bugun dunyoning turli mintaqalarida ro'y berayotgan qonli voqealar TDT doirasida xavfsizlik bo'yicha hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozimligini taqazo etmoqda. 2022-yilda o'tkazilgan Samarqand sammitidan boshlab bu borada ham vaziyat o'zgardi. Endilikda a'zo davlatlar mudofaa bo'yicha yaqin hamkorlikni bosqichma-bosqich rivojlantirib bormoqda. Ahamiyatlisi, 2025-yilning iyulida Istanbulda TDT a'zo davlatlari mudofaa vazirlari birinchi marta yig'ildi.

2025-yilning 7-oktabr kuni Ozarbayjon Respublikasining Gabala shahrida "Mintaqaviy tinchlik va xavfsizlik" mavzusida o'tkazilgan Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) davlat rahbarlari kengashining 12-sammitida a'zo mamlakatlar tomonidan xavfsizlik borasida muhim qaror qabul qilindi. Unga ko'ra, 2026-yilda TDT bayrog'i ostida birinchi qo'shma harbiy mashqlarni o'tkazish haqida kelishuvga erishildi. Bu TDTning rasmiy ittifoqqa aylantirish yo'lidagi muhim qadamdir.

TDT doirasida erishilayotgan yutuqlar, ijobiy tendensiyalarga qaramay, bir qator muammoli masalalar ham ko'zga tashlanmoqda. Xususan, a'zo davlatlar o'rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasi sezilarli farq qilishi, "O'rta yo'lak" loyihasining to'liq imkoniyatini amalga oshirish uchun katta investitsiyalar talab qilinayotganligi, bugun butun dunyoda yirik davlatlar o'rtasida yuz berayotgan manfaatlar tuqnashuvi davrida a'zo davlatlar diplomatik munosabatlarda muvozanatni saqlashi ham muhim hisoblanishi hamda TDT da Turkmaniston hali ham kuzatuvchi maqomida qolayotganligi shular jumlasidandir.

<p>KUCHLI TOMONLAR (S)</p> <ul style="list-style-type: none"> • Umumiy til va madaniyat • Institutsional tuzilma shakllangan • Strategik geografik joylashuv • Siyosiy iroda mavjud 	<p>IMKONIYATLAR (O)</p> <ul style="list-style-type: none"> • O'rta yo'lak transport loyihasi • Raqamli integratsiya • OTS+ formatini kengaytirish • Yashil energetika hamkorligi
<p>ZAIF TOMONLAR (W)</p> <ul style="list-style-type: none"> • Iqtisodiy rivojlanish tafovuti • Transport infratuzilmasi yetishmasligi • Media integratsiyasining sustligi • Turkmanistonning passivligi 	<p>TAHDIDLAR (T)</p> <ul style="list-style-type: none"> • Geosiyosiy raqobat (Rossiya, Xitoy) • Mintaqaviy beqarorlik • Iqtisodiy sanksiyalar ta'siri • Ichki siyosiy o'zgarishlar

Conclusion (Xulosa)

Xulosa qilib aytganda, Turkiy davlatlar tashkiloti o'tgan davrda madaniy muloqot platformasidan mintaqaviy strategik ahamiyatga ega tashkilotga aylandi. 1992-yilda o'tkazilgan birinchi sammitdan 2025-yilgi Gabala sammitiga qadar TDT sezilarli institutsional rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, TDT rivojlanishining uchta asosiy bosqichi — dastlabki integratsiya (1992-2009), institutsionallashuv (2009-2021) va



transformatsiya (2021-yildan hozirgacha) — har biri o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida TDT doirasida dinamik lider sifatida o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda. Iqtisodiy aloqadorlik, mintaqaviy xavfsizlik va barqaror rivojlanish bo'yicha bildirilgan tashabbuslar orqali O'zbekiston turkiy davlatlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash barobarida global miqyosda ham muhim rol o'ynamoqda.

TDTning keyingi rivoji ko'p jihatdan iqtisodiy, siyosiy, raqamli va xavfsizlik bo'yicha hamkorlik aloqalarining izchil davom ettirilishiga bog'liq. "OTS+" formatining joriy etilishi, qo'shma harbiy mashqlar va umumiy alifbo loyihasi kabi ustuvor tashabbuslar TDT doirasidagi hamkorlikning yangi bosqichga o'tishidan dalolat beradi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nakhchivan Agreement on the Establishment of the Cooperation Council of Turkic Speaking States (2009)
2. Turkic World Vision 2040 (2021)
3. Bishkek Summit Declaration of the Organization of Turkic States (2024)
4. Gabala Summit Declaration (2025)
5. OTS Official Website: www.turkicstates.org
6. TURKSOY Official Reports
7. Turkic Academy Research Publications